

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Quronov, M., To'rayev, R. O'zbekiston turizm sohasining rivojlanishi va istiqbollari. – Toshkent: Fan, 2021.
2. H.R. Hamroyev, Turizmologiya / [Matn]: o'quv qo'llanma / Buxoro : "BUXORO DETERMINANTI" MCHJning Kamolot nashriyoti, 2023. - 236 b.
3. ALISHER NAVOIY VA XXI ASR mavzuidagi xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari; / mas'ul muharrir Shuhrat Sirojiddinov. – 2020, 2021, 2022, 2023, 2024, 2025.
4. Qobilova, Z. (2024). ALISHER NAVOIY ADABIY MEROSINING OZARBAYJONDA O'RGANILISHI. *Hamkor konferensiyalar*, 1(1), 215-219.
5. Alisher Navoiy adabiy va ilmiy merosini o'rganish masalalari / – "Yashil yaproq nashriyoti". – Toshkent, 2025. – 533 b.
6. Qobilova, Z. (2024). ALISHER NAVOIY ADABIY MEROSINING OZARBAYJONDA O'RGANILISHI. *Hamkor konferensiyalar*, 1(1), 215-219.

TARIXIY ADABIY JOYLAR VA ULARNING ADABIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI

Imomaliyeva Musharrafxon
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
Tursunova Namunaxon
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
namunaxon1992@gmail.com
Qo'qon universiteti o'qituvchilari

Annotatsiya

Ushbu maqolada Qo'qon adabiy muhitida ijod qilgan ijodkorlar uy-muzeylari haqida ma'lumotlar berilgan. Jumladan, Muhammad Aminxo'ja Muqimiy hujra uy-muzeyi, Hamza Hakimzoda Niyoziy uy-muzeylari hozirgi kundagi holatlari bayon etilgan. Adabiy turizmni rivojlantirish bo'yicha ba'zi fikr-mulohazalar, takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: Adabiy turizm, Qo'qon, Muhammad Aminxo'ja Muqimiy hujra uy-muzeyi, Hamza Hakimzoda Niyoziy, majmua, uy muzey, bog', ma'naviyat.

Kirish. O'zbekistonning boy adabiy merosiga ega bo'lgan shaharlaridan biri Qo'qon shahridir. Qadimiy buyuk ipak yo'li yo'nalishida turgan bu shahar, asrlar davomida turli madaniyatlar chorrahasi bo'lib kelgan. Ammo Qo'qonni yanada ajralib turadigan jihati: bu uning adabiy merosidir. Shahar o'zbek va jahon adabiyotiga ulkan hissa qo'shgan shoir va yozuvchilarning Vatani sifatida tanilgan.

Qo'qon adabiy maktabining ildizlari XIX asrga borib taqaladi. Bu davrda shahar Movarounnahrning madaniy markazlaridan biriga aylangan. Qo'qon xonlari san'at va adabiyotga homiylik qilishgan, shu sababli shaharda ko'plab shoirlar, olimlar va san'atkorlar yashab ijod qilgan. Shahar hashamatli yodgorliklarga va ulug'vor madrasalarga boy. Qo'qon ilm-fan rivojlanishining markazi sifatida Umarxon Amiriy davrida, nihoyatda rivojlandi. Qo'qon adabiy muhiti shakllandi.[2.669] Bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi.

Shaharning diqqatga sazovor bo'lgan qadimiy inshootlaridan Xudoyorxon saroyi, Jomiy masjidi, Modarixon maqbarasi, Norbutabiy madrasasi, Qo'qon xonlarining maqbarasi, Dahma-i Shohon kabi yodgorliklari bugungi kunda ham ko'plab sayyohlarni o'ziga jalb qilib kelmoqda. Adabiy turizm nuqtayi nazaridan Qo'qonning eng qiziqarli jihati, bu yozuvchilar va shoirlarning hayoti va ijodi bilan bog'liq joylarni o'rganishdir. Mazkur maqolada Qo'qonda yashab, ijod qilgan

o'zbek adabiyotining yetuk ijodkorlari hamda ular qo'nim topgan tarixiy adabiy manzillar haqida so'z yuritiladi.

Bu yodgorliklarni o'rganish, ularni obodonlashtirish, adabiy turizm uchun muhim bo'lgan madaniy meros obyektlari tarkibiga qo'shish va targ'ib qilish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Asosiy qism: Hozirgi kunda shaharda bir nechta adabiy uy muzeylari mavjud bo'lib, ularda mahalliy adiblar, shoirlar va madaniyat arboblarning hayoti va ijodi keng yoritilgan. Bularga Buyuk allomalar muzeyi, Muqimiy hujra uy-muzeyi, Hamza uy-muzeylari kiradi.

2017-yilda Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Qo'qonda O'zbekistonning buyuk mutafakkirlariga bag'ishlangan Buyuk allomalar muzeyi tashkil etildi. [3, <https://uzbekistan.travel/uz/qo'qon-shahridagi-buyuk-allomalar-muzeyi/>].

Muzeyning qurilish loyihasi taniqli o'zbek me'mori S. Sutyaginga tegishli bo'lib, muzey ekspozitsiyasi besh bo'limdan iborat. Birinchi bo'lim O'rta Osiyo ilmi va madaniyatiga bag'ishlangan. Ushbu bo'limda taniqli sharq mutafakkirlari Abu Rayxon Beruniy, Avitsenna, al-Farobiy, al-Farg'oni, al-Buxoriy, Mahmud Koshg'ariy, Ahmad Yassaviy haqida ma'lumotlar hamda ularning qo'lyozmalarining nusxalari keltirilgan. Muzeyning ikkinchi qismida Temuriylar davrining buyuk shaxslari hamda ushbu davrda yaratilgan tarixiy asarlar haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, ushbu bo'limda XVIII-XIX asrlarda Farg'ona vodiysining taniqli shaxslari hayotidan juda ko'p qiziqarli ma'lumotlar ham aks etgan. Muzey bo'limlarida jadidlarning Turkistondagi harakati, uning taniqli vakillari –Mahmudxoja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Ibrohim Davron va Is'hoqxon Ibratning hayoti hamda faoliyati keng yoritilgan. Qo'qonning xattotlik san'atiga oid ekspozitlar, milliy hunarmandchilik va ziyoratgoh uchun muqaddas joylar to'g'risidagi ma'lumotlar ilm ahlida o'zgacha qiziqish uyg'otadi. Muzeyda taniqli olimlar va Farg'ona vodiysida tug'ilgan akademiklar — Qori Niyoziy, Tesha Zohidov, Raxima Aminova, Po'lat Qayumiy, Usta Boqi va boshqalarga bag'ishlangan bo'lim alohida o'rin tutadi. Muzeyning birinchi qavatida esa Qo'qon adabiy muhiti vakillari — Umarxon Amiriy, Nodira, Muhyi, Muqimiy, Zavqiy, Furqat ijodiga oid kitoblar joy olgan. Binoning me'moriy yechimi zamonaviylik va tarixiy an'analarni o'zida uyg'unlashtirgan bo'lsa-da, bu noyob majmuani sayyohlarga tanishtiradigan hamda ijodkorlarning asarlaridan namunalar taqdim etadigan soha mutaxassisleri yetishmaydi.

Muqimiy hujra uy-muzeyi Sohibzoda Hazrat madrasasida joylashgan bo'lib, Qo'qondagi me'moriy yodgorliklardan biridir. Bu madrasani qurilishi bo'yicha manbalarda turli fikrlar uchraydi. Muzey xodimlari quyidagicha hikoya qiladi:

“1825-yilda Qo'qon xoni Muhammad Alixon xalq orasida Sohibzoda Hazrat nomi bilan tanilgan atoqli olim va davlat arbobi Fazliy Ahadga elchi yuborib, uni Qo'qonga kelishga va bu yerda ilm-ma'rifat rivojiga hissa qo'shishga taklif qiladi. Fazliy Ahad bu taklifni qabul qilib, o'zi va oilasi uchun hovli hamda madrasa barpo etilishini so'raydi. Xon uning iltimosiga rozi bo'lib, hashar yo'li bilan bir hovli qurdiradi. Shuningdek, xon farmon berib, to'rtta otni qo'yib yuborishni va ular qayerda to'xtasa, o'sha joyda mudarris uchun hovli hamda madrasa qurilishini buyuradi. Otlar hozirgi muzey sifatida faoliyat yuritayotgan Sohibzoda Hazrat madrasasi joylashgan hududga kelib to'xtaydi. Bu joy Qo'qonning "Begvachcha" mahallasi bo'lib, ilgari Qo'qon xonlarining beklari yashagan”.

Miyon Ahad asli Peshovar (Pokiston)lik bo'lib, evarasi Abdurahmonning hikoya qilishicha, u Abdusamadboy degan savdogar bilan tanishib, o'z oilasi bilan 1825-yilda Qo'qonga ko'chib kelgan. Ahad o'zining o'tkir zehni, diniy bilimlarga boyligi bilan mahalliy aholi o'rtasida katta e'tibor qozongan hamda xon huzurida maslahatchi darajasiga ko'tarilgan. U Pokistondan olgan meros mulkiga shu madrasani qurdirgan.[4, <https://fergana.uz/about city/museum/>]

Ko'rinib turibdiki, ikki manbada ham Miyon Ahadning bilimli, zakovatli bo'lgani haqida gap boradi.

Madrasa 1827-1860-yillar oralig'ida barpo etilgan. Madrasa 3 ta hovli, 65 ta hujra, 1 ta masjiddan iborat. Birinchi hovli hashar yo'li bilan xon tomonidan, ikkinchi va uchinchi hovlilarni Miyon Ahad o'z mablag'idan qurdiradi.

Birinchi va ikkinchi hovlida (hozirda faqat uchta hujra saqlanib qolgan) ta'lim jarayonlari olib borilgan, uchinchi hovli esa xo'jalik ishlari uchun ajratilgan. Madrasa yettita hujra, to'rtta mehmonxona va ikkita ayvondan iborat bo'lib, bu yerda hujralar langarxona, mehmonlar uchun mehmonxona, miskinlar uchun yemakxona hamda talabalar uchun yotoqxona sifatida xizmat qilgan. Ta'lim uch bosqichda — absad (boshlang'ich), adno (o'rta) va a'lo (oliy) darajalarda olib borilgan. Shuningdek, qatnash imkoniyati bo'lmagan talabalar uchun maxsus yotoqxonalar ham mavjud bo'lgan.



Sohibzoda Hazratning o'g'illari Miyon Sotvoldixon Muqimiy bilan birga o'qigan. Muqimiyning otasi Mirzaxo'ja vafot etgandan so'ng, oiladagi moddiy qiyinchiliklar boshlanib, ota hovlisi sotilib, "bevatan" bo'lib qolganida Miyon Sotvoldixon do'sti uchun madrasadan ikki hujra ajratib beradi. 1886-yillarda shoir mazkur madrasaga ko'chib o'tadi to umrining oxirigacha 1903-yilgacha shu yerda yashaydi.

1920-yilda madrasa sifatidagi faoliyati to'xtatilgan. Ancha yillar qarovsiz holatga tushib qolgan. 1939-yilga kelib shoir yashagan madrasaning hujrasi va yana sakkizta hujrada "Muqimiy –hujra muzeyi" sifatida tashkil etilgan. Bu hayrli ishning boshida qo'qonlik shoir Asqarali Charxiy turgan bo'lib, uning sa'y-harakatlari bilan madrasa muzey sifatida faoliyatini boshlaydi. Charxiy Muqimiy muzeyida ko'p yillar ilmiy xodim bo'lib ishlab, "Muqimiyning adabiy merosini tiklashda, uni avaylab saqlashda, e'lon qilinmagan bir qancha g'azallarini xalqqa taqdim qilishda qo'limdan kelgancha xizmat qildim." [6,2] - deb o'z estaliklarida yozib qoldirgan.

Bugungi kunda madrasaning birinchi hovlisida Sohibzoda Hazrat xonalari, Muqimiyning hayoti va ijodiga bag'ishlangan bo'lim, shuningdek, Muqimiy, Charxiy, Zavqiy, Javdat Abdulla va Husayn Shams hujralari, darsxona hamda chillaxona muzey sifatida faoliyat yuritmoqda.

Muqimiy o'z davrining madaniy va adabiy hayotida katta ahamiyat kasb etgan. Muqimiy hujrasi ikki qism: dahliz va ichkaridan iborat. Dahliz ombor vazifasini bajarib, oziq-ovqat, idish-tovoqlar saqlangan. Ichkari xonada shoir yashab ijod qilgan. Bu yerda mo'rili o'choq va qozon bo'lib, bundan ovqat ham pishirilgan cho'g'ini sandalga solib, qish kunlarida xona isitilgan. Muqimiyning o'z qo'llari bilan yozgan dasxati aks etgan xattotlik namunalari, shoir foydalangan kitoblari, yozuv qurollari, ro'zg'or buyumlari, kiyimlari bor. Bu manzaraga qarab shoir ijod bilan band bo'lib, hozirgina tashqariga chiqqan va yana qaytib kelib, ijod bilan mashg'ul bo'ladi degan tasavvur hosil qilish mumkin.

“Muqimiy hayoti va ijodi” nomli xonada shoirning hayoti va ijodiga oid badiiy hamda ilmiy asarlar, boʻz matoga S. Vilanskiy dastxati qoʻyilgan Muqimiy portreti, Shohimardondagi safariga oid tasvirlar, shuningdek, Furqat bilan ijodiy hamkorligi aks etgan suratlar joy olgan. Shuni alohida taʼkidlash joizki, ushbu suratlar Muqimiyning jiyani Roʻzimuhammad hamda shoirning zamondoshlari va hamsuhbatlari taʼriflariga asoslanib, rassomlar tomonidan xayoliy tasvir sifatida chizilgan.

Chunki, Muqimiy biror marotaba rasmga tushmagan. Shoirning jiyaniga yozgan maktublari buni isbotlaydi. Lekin shunday boʻlsa-da, xona shoirning ijodiy merosi bilan tanishish imkonini beradi.

“Sohibzoda Hazrat” hujrasida esa Hazratning avlodlari shajarasi xaritasi va avlodlari rasmlari, ular haqidagi maʼlumotlar oʻrin olgan.

“Charxiy” hujrasida shoirning faoliyatini aks ettiruvchi ish stoli, husnixat namunalari, nashr ettirilgan toʻplamlari, S.Vilanskiy chizgan portreti bor.

“Zavqiy” hujrasida shoir oʻzi foydalangan soat, chiroq, ijod namunalari va ular asosida chizilgan rasmlar keltirilgan.

“Husayn Shams” va “Javdat Abdulla” hujralarida eksponatlar juda kam boʻlib, asosan, ularning fotoapparatda olingan rasmlari joylashtirilgan, xolos.

Mazkur muzey ancha achinarli taʼmirtalab holatga tushib qolgan. Ikkinchi va uchinchi hovlilar hali muzey tarkibiga kiritilmagan boʻlib, hozirda eʼtiborsiz va koʻrimsiz holatda.

Agar bu hududlar qayta rekonstruksiya qilinib, turli xil eksponatlar bilan boyitilib, katta adabiy majmuaga aylantirilsa, muzeyda shoirlarning sheʼrlari bilan aytiladigan qoʻshiqlar yangrab tursa yoki sheʼrlar ifodali oʻqilgan holda tashrif buyuruvchilarga taqdim etilsa, yoshlarni tarbiyalashda ushbu uy-muzeyning ahamiyati yana-da ortar edi. Shu bilan birga, bu Qoʻqonda adabiy turizmni rivojlantirishdagi beqiyos qadamlardan biri boʻlardi.

Mashhur oʻzbek dramaturgi, shoir va jamoat arbobi Hamza Hakimzoda Niyoziy xotirasiga bagʻishlangan Qoʻqon shaharida hozirgi Muqimiy koʻchasida Hamza uy-muzeyi tashkil etilgan. Muzey Hamzaning tugʻilgan uyi boʻlib, u yerda uning hayoti va ijodi haqida boy maʼlumotlar jamlangan. Muzey 1956-yilda tashkil etilgan. [7, <https://fergana.uz/about-city/museum>]

Hovli toʻqqizta xonadan iborat. Hamzaning otasi tabib boʻlgan. Birinchi xona uning davolash xonasi, ikkinchi xona Hamzaning xonasi boʻlib, uning shaxsiy buyumlari pianino, ikkita tanbur, qoʻlyozmalari, suratlari va uning asarlari bilan bogʻliq boshqa eksponatlar namoyish etilgan. Ijodkorning ijod namunalarining aksaryat qismi shu xonada yozilgan.

Uchinchi xona “yemakxona” u yerda oilaviy ovqatlanishgan. Toʻrtinchi xona onasining, beshinchi xona opasi va keying xonalar oshxona, tandirxonalardan tashkil topgan.



Mazkur muzey Hamzaning hayoti va ijodi haqida taassurotlarni beradigan majmua, o'ziga xos tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan, madaniy meroslarimizdandir.

Qo'qon shahrining "Shayxon" qabristonida, darvozasidan kirilganda chap tomonda, shaharda yetishib chiqqan davlat arboblari va ijodkorlarning ramziy qabrlari bir yerga jamlangan. Bularning ichida Muqimiy qabri ham bor. Bu yerlarni ta'mirlashga ehtiyoj bor. Chunki qabr toshlarga o'tgan asrlardagi talqinlar bo'yicha "demokrat shoiri" deb yozilgan. Vaholanki, muqimiylardan demokrat tamg'asi olib tashlangan. Qabrlar ta'mirlanib, katta majmuaga aylantirilsa, respublikamiz yoshlari, adabiyot ixlosmandlari uchun ham ziyoratgoh maskanga aylanar edi.

1. Ma'lumotlarga ko'ra Qo'qonda XX asr boshlarida 660 ta masjid, 67 ta madrasa, 26 ta ziyoratgoh, yuzdan ortiq xonaqoh, 6 ta markaziy va o'nlab ixtisoslashtirilgan bozorlar, 30 ga yaqin karvonsaroylar mavjud bo'lgan. [8, <https://uzbekistan.travel/uz/o/qo%E2%80%98shahridagi-buyuk-allomalar-muzeyi/>]

Shaharda Mohlaroyim Nodira rahbarligida 1824—1825-yillarda Chalpak, Mohlaroyim madrasalari ham qurilgan bo'lib, bugungi kunda bu manzillar haqida ma'lumotlar yo'q.

Qo'qon davlat muzey-qo'riqxonasi direktori Movlonqulov Muhammadrashod mazkur madrasalarni tiklab, muzey sifatida faoliyatini boshlash kerakligi to'g'risida shu soha vakillariga murojaat qilgan. Yana bir adabiyot, madaniyat fidoyilaridan, adabiyotshunos Kobilova Zeboxon ham Qo'qon shahrini "Yuneskonning ijodkor shahar tarmog'i" ga qo'shish bo'yicha amaliy ishlarni amalga oshirib kelmoqda. Agar ularning faoliyatlari va olib borayotgan sa'y-harakatlari qo'llab-quvvatlansa, yodgorliklarning ramziy ko'rinishlari qayta tiklansa, shahar boy madaniy merosga ega bo'lardi. Bu, albatta, mahalliy turizmning rivojlanishiga turtki berib, ish o'rinlari yaratish va mahalliy aholini bandlik bilan ta'minlashga xizmat qilardi.

Xulosa: Obod manzillar ham bunyod etilib qo'yildi deylik, ularni chet ellik yoki mahalliy sayyohlarga kim batafsil tanishtiradi? Muzey xodimlarimi? Yo'q, ular hatto ijodkor ijodidan bir bayt ham bilmaydi-yu, qanday qilib tashrif buyuruvchilarga tanishtirsin?

Muzey xodimligiga Qo'qon adabiy muhiti va tarixini yaxshi bilgan mutaxassislarni, shuningdek, o'zbek tili va adabiyoti hamda tarix fakultetlarini tamomlagan bitiruvchilarni ishga olish zarur. Shuningdek, muzey xodimlaridan tortib, mehmonxona xodimlarigacha, Qo'qon adabiy muhitining barcha ijodkorlari hayoti va ijodi namunalarini yaxshi bilishlari lozim. Qo'qon shahridagi barcha oliy o'quv yurtlarining barcha yo'nalishlarida, ayniqsa, turizm fakultetlarida fan sifatida Qo'qon adabiy muhiti o'qitilishi, shuningdek, muzeyshunoslik fakultetlarining tashkil etilishi zarur. Agar biz bayon qilgan mulohazalar amalga oshirilsa, davlatimiz iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy va siyosiy jihatdan ulkan sarmoyalarga ega bo'ladi. Mahalliy aholi ish bilan band bo'lib, mehmonxonalar, restoranlar va tomoshagohlarning to'liq faoliyati ta'minlanadi, xorij valyutasining kirib kelishi oshadi. Zero, ma'naviy taraqqiyot iqtisodiy yuksalishga asos bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2021. Kabilova Z. STUDYING EMIRI DEVON IN TURKEY. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(12), 2022.

2. Bakirovna K. Z. The Rhythm of the Literary Impact. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, 8(9), 2019.

3. Qobilova Z., & Binnatova, A. SHARQ MUMTOZ ADABIYOTSHUNOSLIGIDA AN'ANA VA O'ZIGA XOSLIK MASALALARINING NAZARIY ASOSLARI. *Interpretation and researches*, 1(1), 2023.

4. Kobilova, Z. Image of a Drinker and a Hermit in the Amir Al-Ghazali. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 2(4), 2022.
5. Qobilova Z. Amiriylar she'riyati. – Toshkent: Fan, 2010.
6. Charxiy. Qiyolab o'tdi. – Toshkent: Akademnashr, 2010.
7. Maxkamova, M. KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARDA DIQQATNI RIVOJLANTIRISH USULLARI. *University Research Base*, 2024.
8. Tursunova, N. FOLKLORE MOTIVES IN MUKIMIY'S WORK. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(09), 2021.
9. <https://fergana.uz/about-city/museum>
10. <https://uzbekistan.travel/uz/o/qo%E2%80%98qon-shahridagi-buyuk-allomalar-muzeyi/>

ADABIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA “IJODKOR SHAHARLAR” NING O'RNI

Zeboxon Kobilova,

Qo'qon universiteti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar
bo'yicha prorektori, f.f.d., professor.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Adabiy turizmni rivojlantirishda Xalqaro UNESCO tashkilotining “Ijodkor shaharlar” tarmog'i va uning “Adabiyot” yo'nalishi ahamiyatiga diqqat qaratilgan. Qo'qon shahrini mazkur tashkilotga kiritish uchun qanday ishlar amalga oshirilganligi, tarmoqqa a'zo bo'lsa, natijalar qanday bo'lishi haqida zaruriy va aniq fikrlar yuritilgan.

Kalit so'zlar: adabiy turizm, ijodkor shahar, sayohat, ijod, adabiyot, ma'rifat, iqtisodiyot, tarix, adabiy muhit, kutubxona, muzey, rivojlanish

Kirish: Adabiy turizm — bu turizmning bir shakli bo'lib, unda sayohatchilar o'z sayohatlarini adabiyotga, yozuvchilarga, ularning asarlariga yoki adabiy tarixga oid joylarga asoslangan faoliyatlarini o'rganishga bag'ishlaydilar. Adabiy turizm ko'plab turistlarni o'ziga jalb etadi, chunki bu turizm turi o'quvchilar, yozuvchilar, adabiyot ishqibozlari va keng jamoatchilik uchun madaniy, tarixiy va ijodiy tajribalarni taklif etadi.

Adabiy turizmning quyidagi afzalliklari mavjud:

1. Hududdagi madaniy merosni saqlashga va o'rganishga yordam beradi.
2. Yozuvchilar va ularning asarlari orqali tarixiy va madaniy an'analar kelajak avlodlarga yetkaziladi;
3. Ko'plab yangi turistlar jalb etiladi, bu esa mehmonxona, restoran, transport, yodgorliklar va kitob do'konlari kabi xizmatlar orqali iqtisodiy foyda keltiradi;
4. Adabiy turizm bilan shug'ullanuvchi shaharlar va mintaqalar o'zining madaniy va ijodiy salohiyatini dunyo miqyosida namoyish etadi, bu esa ularning obro'sini oshiradi.
5. Adabiy turizm sayohatchilarga adabiyot, tarix va madaniyat haqida yangi bilimlar olish imkoniyatini taqdim etadi.

Shunday imkoniyatlaridan kelib chiqib, jahonda adabiy turizm alohida bir mustaqil soha sifatida o'sib chiqib, kundan kun rivojlanib bormoqda. Dunyo mamlakatlarida adabiy turizm rivojlanishini YUNESKO tashkiloti ham har tomonlama qo'llab-quvvatlaydi. Mazkur tashkilotning "Ijodkor shaharlar" tarmog'i, ayniqsa, **adabiyot** yo'nalishidagi shaharlari adabiy turizmni rivojlantirishda juda muhim rol o'ynaydi. UNESCO tomonidan tan olingan shaharlar o'zlarining ijodiy salohiyatini va madaniy merosini dunyo bo'ylab tanitish orqali adabiy turizmni rivojlantiradi. Jannatmonand o'lkamizning har bir shahri o'ziga xos moddiy va nomoddiy obektlarga ega ekanligini hisobga olsak, shaharlarni har taraflama rivojlantirish, adabiy turizmni